



## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA BUTUN NOMANFIY SONLARNI O'RGATISH METODIKASI

Usenbaeva Gozzal

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogik instituti  
Boshlang'ich ta'lim fakulteti 3v-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15341520>

### ARTICLE INFO

Received: 28th April 2025

Accepted: 30<sup>th</sup> April 2025

Published: 5<sup>th</sup> May 2025

### KEYWORDS

*Boshlang'ich sinf, o'quvchi, o'qituvchi,  
maktab, nomanfiy sonlar.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga  
butun nomanfiy sonlarni o'rgatish metodikasi,  
butun nomanfiy sonlarning xususiyatlari haqida  
aytilib o'tiladi*

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika fanini o'rgatish juda muhim va murakkab hisoblanadi. O'quvchilarning ko'pchiligi bu fanga yaxshi tushunmaydi. O'quvchilar bu fanga qiziqishi uchun o'qituvchi darsni qiziqarli qilib o'tishi kerak. Buning uchun o'qituvchi harxil ko'rgazmali qurollardan foydalanadi. Bu orqali boshlang'ich sinf o'quvchisi darsga qiziqadi va mavzularga tushuna boshlaydi. Butun nomanfiy sonlar bu boshlang'ich sinf o'quvchilari aniq tushunishi kerak bo'lgan mavzulardan biri hisoblanadi. Butun nomanfiy sonlarga natural sonlarni kiritsak bo'ladi. Butun sonlarga 1; 2; 3; 4;..... kabi sonlar kiradi. Butun sonlarni boshlang'ich sinf o'quvchilariga sanashda qo'llanadigan sonlar deb tushuntirib o'tishimiz mumkin. Shunda ular butun nomanfiy sonlarga tushuna boshlaydi. Butun nomanfiy sonlarni nomerlash va ular ustida arifmetik amallar bajarish boshlang'ich matematika kurm asosum tashkal qiladi Butun nomanfiy sonlar ustida ishlash boshlang'ich maktabda 4 yil o'qish davomida olib boriladi. Matematika dasturn natural sonlar va nola haqidagi ma'lumotlarm o'nlik, yuzlik, minglik, ko'p xonali sonlar konzentrian bo'yicha kiritishni nazarda tutadi Har bir konsentr o'z mazmunga ko'ra sistematik an finetika kursining asosiy masalalarini aks ettiradi, shuung uchun o'quvchilar u yoki bu chegaralar ichida sonlari nomerlashni va bu sonlar ustida amallarni o'rganadilar, umuman arifmetikaning mohiyati tog'risida tasavvur hoal qiladilar O'nliklarmi ajratish o'nlik sanoq astemasing xususiyatlari bilan sonlari og'zaki va yozma nomerlash bilan bog'liq bo'lgan asosiy masalalari o'rganishga imkon beradi Birinchi o'nlikni o'rganishda predmetlarm sanash, 1-10 gacha bo'lgan sonlarning nomlanishi, ketma-ketligi va belgilanishi, sonlarni taqqoslashning turli usullarini (oldin predmetlarning mos to'plamlari ustida operasiyalar bajarish asosida, so'ngra esa taqqoslanayotgan sonlarning qatorda egallagan o'rni bo'yicha sonlarning tarkiblarini) o'zlashtirib olish nazarda tutiladi. O'qitishning boshidanoq bolalarda bazi muhim umumlashtirishlar shakllanadi. Masalan, natural qatordagi har bir navbatdagi son qanday hosil bo'lishi aniqlanadi, qatorning ixtiyoriy son bilan undan oldin keladigan va keyin kelangan hamma sonlar orasidagi munosabatlar o'rnatiladi va shu bilan birga bo'sh to'planning xarakteristikasi sifatida 0 soni ham tanishtiriladi. Birinchi sinf darsligida oldin 1-20 ichida, so'ngra 21-100 sonlarni nomerlash qaraladi.

Butun sonlarni 1-sinfdan boshlab o'rgatganimizda dastlab o'quvchilarga sonlarning yozilishi haqida tushuncha berib o'tishimiz kerak. O'quvchilar sonlarning yozilishi, nomlanishini bilmay turib butun nomanfiy sonlarga tushunmaydi. Asta-sekinlik bilan o'quvchilar oson

darajadan murakkab darajaga o'tib boradi. 1-sinf o'quvchilariga o'n va yuz konzentridagi butun nomanfiy sonlarni qo'shish va ayirish o'rgatiladi. Asosan 1-sinf o'quvchilari butun nomanfiy sonlar ustida qo'shish va ayirish ustida misollar ishlaydi. Misollarni o'quvchilar harxil hisoblash tayoqchalari orqali o'rganadi. Bu o'quvchilarga mos va qulay bo'lib hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabga dastlabki kelgan kunlari juda dangasa va tortinchoq bo'ladi. Ularni darsga qiziqtirish uchun harxil ko'rgazmali qurollardan foydalanib dars o'tishimiz kerak. Agar ko'rgazmali qurollardan foydalanmagan darslarni oddiy usulda o'tsak o'quvchilar bunga qiziqmay qolishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ichida 1-sinf o'quvchilariga dars o'rgatish qiyin va mashaqqatli ish hisoblanadi. Shuning uchun o'quvchilardan katta ma'suliyat va bilim talab qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga butun nomanfiy sonlarni o'rgatkanimizda avvalo uni nomerlashga o'rgatishimiz kerak bo'ladi.

Birinchi o'nlik nomerlashda 1-10 sonlarini sanash, nomerlashni aytish, ketma-ketlikning katta-kichikligini o'zlashtirish nazarda tutiladi. 1-o'nlik bilan 0 soni ham birga o'rgatiladi. Uni bo'sh to'planning xarakteristikasi sifatida berilgan. Nomerlash davomida 11-20, keyin, 21-100 ichida sonlarni nomerlash qaraladi. 1, 2... o'nliklarni hosil qilish birgalikda o'nliklarni ya'ni o'nlik sanoq sistemasining mohiyati tushuntiriladi. Keyingi sinflarda 100 ichida, 1000 ichida va ko'p xonali sonlar yozma va og'zaki nomerlash, arifmetik amallar bajarish komponentlarining nomlarini o'rgatishlar amalga oshiriladi. Boshlang'ich matematikaning dasturida, oldingidek arifmetik materialda asosiy o'rinni egallaydi. Bunda arifmetika nazariyasi (amallar va ularning xossalari, komponentlar va natijalar orasidagi o'zaro bog'lanish, miqdor, son, o'lchash, hisoblash, masalalar yechish, sanoq sistemasi) ni shakllantirishning mukammal sistemasi ko'zda tutilgan. Shunga mos boshlang'ich matematika o'qitish metodikasi ham bir muncha rivojlantirilgan. Kichik yoshdagi o'quvchilarni o'qitishning barcha bosqichlarida ularning fikrlash faoliyatlarini faollashtirishga tayin faktlar va kuzatishlarni o'z vaqtida umumlashtirishga, ayrim masalalar orasidagi o'zaro bog'lanishni tayinlashga, bolalarda mustaqil ishlash, o'quvchilarni paydo qilishga qaratilgan ya'ni asoslangan usul va uslublar maktab dasturiga kiritilgan.

Butun nomanfiy sonlarni nomerlash va ular ustida amallar bajarish matematika kursining asosini tashkil qilib, unga algebra va geometriyaning boshlang'ich elementlarini kiritish, buning natijasida son, arifmetik amallar va arifmetik munosabatlar kabi arifmetik tushunchalar yuqoriroq darajada qarash ko'zda tutilgan. Butun nomanfiy sonlarni og'zaki va yozma nomerlash, boshlang'ich matematikaning asosiy masalalaridan biri. Og'zaki nomerlash bilan o'quvchilarni sanashga o'rgatish, ularda 1, 2, 3 so'zlar bilan sonlarni ifodalash katta o'rin egallaydi. Ikkinchi o'nlik sonlarini nomerlashni o'rganish o'quvchilar uchun prinsipial yangi bo'lgan bilimni shakllantirishdan, ya'ni yangi sanoq birligi sifatidagi o'nlik tushunchasini shakllantirishdan boshlanadi. Shundan keyin 11-20 sonlarni o'nlik tarkibi, 21-100 ichida sonlarni og'zaki va yozma nomerlash hamda shu sonlarning o'nlik tarkibi o'rnatiladi. Sonlarning natural ketma-ketligini bilganlik asosida  $13+1$ ,  $17+1$ ,  $10+3$ ,  $16-6$ ,  $19-40$  ko'rishdagi qo'shish va ayirishni puxta biladilar. Birinchi sinfda 100 ichida nomerlash bilan o'quvchilar tanishganlaridan keyin yangi sanoq birligi yuzlik bilan tanishadilar, bu yerda ular o'nlik birlik - yangi sanoq birligi o'nlikni, o'nlik esa yangi sanoq birligi - yuzlikni hosil qiladi, degan o'nlik sanoq sistemasi to'g'risida boshlang'ich ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Shuningdek, 2-4 sinflarda yangi sanoq birligi minglik va million bilan tanishib, bu konsentrlarda og'zaki va yozma nomerlashni o'zlashtirib oladilar. O'quvchilarga samash o'rgatilgandan keyin shu sonlarni yozma ravishda ifodalash buyuriladi. Sanash natijasida hosil bo'lgan sonlarni va bu sonlarning raqamlar yordamidagi yozuvni natural sonlar deyish o'rgatiladi. Natural son tushunchasini to'plam tushunchasi bilan bog'lab tushuntirish zarur. Har qanday to'plamda uni tashkil qiluvchi elementlar qancha degan savol qo'yilganda biz to'plam elementlarini sanash yo'li bilan javob beramiz. 1, 2, 3, ...sonlar bilan ifoda etiladi. Bu di. Bu sonlarning har birini natural son deyish qabul qilinganligi o'rgatiladi. Masalan, 4 sonini tushuntirayotganda, stol,

stullarning 4 oyog'i, uying 4 tomoni, mashinaning 4 g'ildiragi, 4 so'm, qo'yning 4 oyog'i va hokazo, bularning hammasi bir xil sinfga tegishli to'plamlar bo'lib, bularni 4 natural soni bilan belgilash qabul qilingan.

Hozirgi paytta ko'pchilik o'quvchilar maktabga sanashni o'rganib keladi. Chunki ularga bolalar bog'chasida sanashni o'rgatishadi. Lekin ular sonlarni bir-biridan ayirish va qo'shishga qiynalishadi. 2-sinf o'quvchilari bo'lsa sonlarni bir-biriga ko'paytirishga juda qiynalishadi. Bu yangi tushuncha bo'lgani uchun ular qiynaladi. Ko'paytirish jadvalini yod oladi. Bu vaqtda o'qituvchi o'quvchilarning ko'paytirish jadvalini yod olishiga etibor berib borishi kerak bo'ladi. Chunki o'quvchi shu vaqt ichida karra jadvalini yod olmasa keyinchalik qiynalib qolishi mumkin. Butun nomanfiy sonlarni ko'paytirishdan keyin 2-sinf o'quvchilari o'nlik konzentridagi sonlarni bir-birlariga bo'lishni o'rganib olishadi. Bu mavzuda ko'pchilik o'quvchilar juda qiynalishadi. O'qituvchi bu mavzuni o'rgatishga katta etibor berishi kerak bo'ladi. O'quvchilar bilan sonlarni bo'lishda qiynalmadligi uchun o'qituvchi ularga ko'proq misollar berib ular bilan ko'broq ishlashi kerak. Hozir sonlarni bir-birlariga bo'lishni amalga oshirni yaxshi o'rganib olishi lozim. Keyin 3-4-sinflarda katta butun nomanfiy sonlarni bir-birlariga bo'lishda qiynalib qolishi mumkin. Hozirgi 3-sinf o'quvchilari 100 konzentridagi sonlarni bir-birlariga bo'lishda juda qiynalyabti. Masalan ular quyidagi sonlarni bir-birlariga bo'lishga qiynaladi:

$$525:15= \quad ; \quad 208:2=$$

Ularga bu masalalarni o'rgatishda karra jadvalidan foydalanamiz. Ya'ni uni yozma usulda hisoblab o'rgatamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika fanini o'rgatish va ularni bu fanga qiziqtirish juda muhim. Bu borada o'qituvchi hamma o'quvchilarga mavzularni yaxshi tushuntirib o'rgatib borishi kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva B.S, Sadikova A.V, Xamedova N.A, Muxitdinova N.M, Toshpulatova M.I. Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi. «Excellent Polygraphy» nashriyoti Toshkent, 2020 - 456 bet.
- 2.<https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/algebra/butun-nomanfiy-sonlarni-qo-shish>
- 3.<https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/algebra/boshlang-ich-sinflarda-nomanfiy-butun-sonlarni-nomerlashga-o-rgatish-metodikasi>